

TARJIMA SAN'ATI VA MAHORATI

Quvandikova Gavxar Kamoliddin qizi

O'z DJTU, Tarjimonlik fakulteti, 1-kurs talabasi

quvondiqovagavhar@06gmail.com

Ilmiy rahbar: Xodjayeva S.S.

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarjima san'ati va tarjimoning mahorati, ijodiy qobiliyatlari, shuningdek zamonaviy tarjima talablariga binoan tarjimon asliyatiining san'at asari sifatida shakl va mazmunan qayta yaratish, milliy va shaxsiy yondashish hamda o'z mahoratini ifoda etishi haqida so'z boradi. Tarjima jarayonida to'g'ri termini tanlay olish, lingvistik va grammatik xatolar ustida ishlash, kuzatish, ilmiy- tanqidiy o'rganish, shu bilan birgalikda, chegara va me'yorlarga oid ma'lumotlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: tarjima san'ati, tarjimon mahorati, axborot texnologiyalar, lingvistik, grammatik va uslubiy xatolar, terminlar, ilmiy matn.

Аннотация. В данной статье говорится об искусстве перевода и мастерстве, творческих способностях переводчика, а также о воссоздании переводческого оригинала как произведения искусства по форме и содержанию согласно современным требованиям перевода, национальному и личностному подходу. и выражение своих навыков. В процессе перевода описываются умение правильно выбирать термин, работа над лингвистическими и грамматическими ошибками, наблюдательность, научно-критическое исследование, наряду с этим описываются сведения о пределах и нормах.

Ключевые слова: искусство перевода, переводческое мастерство, информационные технологии, лингвистические, грамматические и стилистические ошибки.

Abstract. This article talks about the art of translation and the skill, creative abilities of the translator, as well as the re-creation of the translator's original as a work of art in form and content according to modern translation requirements, national and personal approach, and expression of his skills. In the process of translation, the ability to choose the right term, work on linguistic and grammatical errors, observation, scientific-critical study, along with this, information about limits and norms are described.

Key words: art of translation, translator skills, information technology, linguistic, grammatical and stylistic errors.



Kirish

So'nggi yillarda axborot texnologiyalarning rivojlanishi hamda tarjima uchun ishlab chiqilayotgan maxsus qurilmalar tarjimonga bo'lgan ehtiyojni pasaytirib, sifatsiz tarjima yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holat birinchi navbatda, mashina tarjimasi va inson tarjimasi o'rtasidagi farq bilan bog'liq ma'lum qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Shu jumladan, XXI asr taraqqiyoti kompyuter texnologiyasining rivojlanishi bilan bog'liq tabiiy til tadqiqotlariga juda katta ta'sir o'tkazmoqda. Biroq, millatlararo aloqalarning jadal rivojlanishi, zamonaviy iqtisodiyotning kirib kelishi natijasida turli sohalarga tegishli ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilishda amaliy malaka va ko'nikmalarga ega tarjimon mutaxassislariga ehtiyoj sezilmoqda. Bunday holatlarda tarjimonning mahorati inobatga olinadi, shuning uchun tarjimon so'z boyligini oshirib borishi, atamalarni tushunishi va ma'nosini bilishi shartdir. Bundan tashqari, ilmiy-texnik atamalarni tarjima qilishda tarjimonda boshqa atamalar bilan solishtirish, tahlil qilish kabi ko'nikmalar bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, malakali tarjimon o'z ishida ilmiy intizomlardan kelib chiqqan holda nazariy va amaliy bilimlarga tayanadi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiyasi.

Tarjima- yuksak san'at, tarjimon esa san'atkordir. Nima uchun tarjima san'at hisoblanadi? Tarjima alohida san'at, chunki tarjimani o'qigan kishi asl nusxani o'qigan narsani tushunishi uchun bir tilda aytilganlarning ma'nosini tushunish va boshqa tilga o'tkazish qobiliyatiga, va nafaqat tushunilgan, balki shunga o'xshash his-tuyg'ularni va estetik his-tuyg'ularni ham boshdan kechirgan bo'ladi.

Tarjima san'ati tarjima bilan birga asliyat va uning muhitiga kirib boradi va qonun – qoidalar, yo'l – yo'riqlarni aks ettiradi. Hattoki, journalist Ra'no Zaripovaning “Tarjima san'ati va tarjimon mahorati” kitobida ukrain adabiyotining ikki buyuk adibi Lesya Ukrainka va Oles Gonchar asarlarining tarjima xususiyatlarini o'rganish orqali tarjima san'ati va tarjimon mahorati haqida fikr yuritiladi. Tarjima san'ati dunyo madaniyati rivojida muhim rol o'ynab kelmoqda va bu sohaga qiziquvchilar soni tobora o'sib bormoqda. Aslida, tarjima o'sib borayotgan bir tilning jozibasini boshqa tilga ko'chiruvchi va o'rganuvchilarning hurmatini qozonish maqsad qilib qo'yilgan faoliyat hisoblanadi. Tarjimon o'z ona tilisining rivojlanish darajasi, tarixi va ahamiyati haqida bilishi lozim va bu holat esa tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi kabi imkoniyatlarini kengaytiradi. Tarjimon o'zining tarjimasi jarayonida ma'lum bir lingvistik, grammatik va uslubiy qoidalarga asoslanib tarjima qilishi talab etiladi. Agar tarjimon o'z-o'zidan hal qila olmaydigan terminologik muammolar bo'lsa, u o'zining ustida tadqiqot olib borishi mumkin.

Natijalar

Tarjima nusxa ko'chirish emas, balki tarjima qilinayotgan har bir satrga o'z san'atini qo'shib o'rganuvchiga oson va qiziqarli yetkazib berish hisoblanadi, shu bilan birgalikda, yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarni badiiy ifodalasa, tarjimon asl matnni yangi til vositasida qayta gavdalantiradi.

Aynan tarjimonning chuqur bilimi, keng dunyoqarashi va katta hayotiy tajribasi tarjimaning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Tarjimaning umumiy nazariyasi konsepsiyasi rus tilshunosi va lingvisti A.V. Fedorov asarlarida keng va to'liq yoritilgan. Ushbu kontsepsiyaga ko'ra, har qanday sifatli tarjima matni, uning lingvistik asosini filologik tahlil qilish bilan boshlanib, badiiy ijod yoki ilmiy tahrir bilan yakunlanishi lozim.

Muhokama

Tarjima jarayonida tarjimonlar turli xil iboralarga, so'zlarga duch kelishi mumkin va bu holat olimlarning fikricha: Tarjimalarda iboralar bo'yicha ixtilof bo'lmaslikning iloji yo'q. Agar tarjimalarda ishlatgan so'zlarimiz odatda, ishlatilganga to'g'ri kelmasa, ma'nolariga e'tibor berilsin, chunki maqsad ma'nolarni bildirishdir. Masalan, ingliz tilida "when pigs fly" iborasi o'zbek tiliga "tuyaning dumi yerga tekkanda" deb tarjima qilinadi. Bundan tashqari, ingliz tilida ilmiy uslubda mavhum fe'llardan foydalaniladi:

Ingliz tilida: *Our planet is wrapped in a mass of gases.*

O'zbek tilida: *Bizning sayyoramiz gazlar bilan o'ralgan.*

Tarjimada badiiy asarlar uchun alohida qoidalar, grammatika va leksika bo'yicha alohida qoidalar mavjud. Masalan, badiiyat ilmida esa tarjimon tarjima masalalarini to'laqonli anglabgina qolmasdan, birmuncha ijodkorlik qobiliyatiga ham ega bo'lmog'i kerak. Negaki, badiiy asarni tarjima tiliga qayta namoyon etishda iste'dod, ilhom kabi mavhum unsurlarning ahamiyati va roli beqiyosdir. Ayniqsa, she'riy tarjimalarda qofiyani keltirib chiqarish birmuncha murakkabliklarni tashkil etadi:

O'zbek tilida: *Jondin seni ko'p sevarman, ey umri aziz,*

Sondin seni ko'p sevarman, ey umri aziz.

Ingliz tilida: *I love you more than my soul, oh, my dear,*

I love you more than all numbers, oh, my dear.

Bunday she'r misralardagi o'zaro qofiyadorlikni saqlab qolish mushkul bo'ladi. Yoki aksincha, qofiya saqlanib qolinganda undagi ruhiyatni tarjima tiliga to'laqonli ko'chirib o'tish masalasi paydo bo'ladi.

Xulosa

Tarjima jarayonida tarjimon son-sanoqsiz amaliy mushkulotlarga duch keladi. Tarjima san'atini oshirish uchun ijodiy yondashuvni kengaytirish tamoyillari maqsad qilib qo'yilmoqda. Tarjimondan tarjima matnining asliyat matniga va uning janr va mohiyatiga mosligi, adekvatligi, barcha xususiy va umumiy universal talablarning o'zaro uyg'unligiga e'tibor qaratadi. Tarjimon maqsadga muvofiq bo'lishi kerak, ular har bir soha bo'yich yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi tarjima uchun ko'plab yutuqlarga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Salomov G'aybulla, Tarjima nazariyasi asoslari, Toshkent, O'qituvchi nashriyoti, 1983 yil



2. Khodjaeva S.S. Features of Translating Culture-Specific Terms, Realities Existing in the Uzbek Language into English. *Miasto Przyszosci Open access Indexed Research Journal from Poland Vol.42 (2023 11.30.)* pp. 115-119 ISSN 2544-980X Impact Factor 9.2. www.miastoprzyszosc.com

3. Xorguelin, Pol. A. (1966). "La Traduction Technique". Meta: Tarjimonlar jurnali.

4. Zaripova R– Tarjima san'ati va tarjimon mahorati, Toshkent: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2021y, 132 bet.

5. <https://zenodo.org>

6. <http://library.navoiy-uni.uz>

7. uz.m.wikipedia.org

8. <https://cyberleninka.ru>

9. <https://ares.uz>